

Kafolat hodisasi yuz bergani haqida ma'lumotni qanday olish mumkin?

Omonatlarni kafolatlash agentligi likvidatordan reyestr, tegishli ma'lumot va axborotni olgan kundan boshlab ikki ish kuni ichida:

1) Ommaviy axborot vositalari hamda o'zining rasmiy veb-saytida quyidagi ma'lumotlarni e'lon qiladi:

- kompensatsiya to'lash muddati, joyi va usuli;
- kompensatsiyani olish uchun omonatchilar bajarishi lozim bo'lgan shartlar.

2) Omonatchilarga Agentlikka kompensatsiya to'lash uchun taqdim etilgan reyestrda o'zlariga tegishli ma'lumotlar bilan tanishish imkonini yaratadi.

Kompensatsiyalarni to'lash tartibi va shartlari, shu jumladan taqdim etiladigan hujjatlar ro'yxati hamda ularni rasmiylashtirish talablari Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

Kompensatsiya olish uchun qanday hujjatlar talab etiladi?

Omonatchi kompensatsiya olish uchun agent bankka quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- bank omonati shartnomasi va/yoki bank hisobvarag'i shartnomasi;
 - shaxsni tasdiqlovchi hujjat.
-

Omonatchining merosxo'rlari kompensatsiya olishi mumkinmi?

Kompensatsiyalar merosxo'rlar, huquqiy vorislar yoki ularning vakillari tomonidan qonunchilikka muvofiq meros yoki huquqiy vorislik huquqini tasdiqlovchi barcha zarur hujjatlar taqdim etilganda to'lanadi.

Bir nechta kafolatlangan omonatlar bo'yicha kompensatsiya qanday to'lanadi?

Agar omonatchiga bir nechta kafolatlangan omonatlar bo'yicha to'lanadigan kompensatsiya umumiy hisobda 200 000 000 (ikki yuz million) so'mdan oshsa, kompensatsiya tugatilayotgan bankdagi omonatlarning umumiy summasidagi ulushiga mutanosib ravishda har bir omonat bo'yicha hisoblab to'lanadi.

Kompensatsiya summasi qanday hisoblanadi?

Kompensatsiya summasi kafolat hodisasi yuz bergan sanadagi holatga ko'ra hisoblanadi va likvidator taqdim etgan reyestr asosida Agentlik tomonidan to'lanadi.

Agar omonatchining bank oldida majburiyatlari mavjud bo'lsa, kompensatsiya summasi kafolatlangan omonat(lar) summasi bilan ushbu bank oldidagi muddati yetgan majburiyatlar o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Qaysi hollarda kompensatsiya to'lovi to'xtatib turilishi mumkin?

Quyidagi holatlar Agentlik tomonidan kompensatsiya to'lovini vaqtincha to'xtatib turish uchun

asos bo'ladi:

- taqdim etilgan hujjatlardagi ma'lumotlarning haqqoniyligi yoki asl ekanligiga shubha tug'ilganda;
 - omonatchi talablari bilan likvidator taqdim etgan ma'lumotlar o'rtasida nomuvofiqlik mavjud bo'lsa;
 - kafolat obyektiga nisbatan cheklov choralarning mavjudligi (hisobvaraqdagi mablag'larga taqiq qo'yilishi, muzlatilishi yoki operatsiyalar to'xtatilishi);
 - kompensatsiya to'lanishidan oldin kafolat obyektining sud nizosi predmeti ekanligi haqida Agentlik xabardor qilinganda.
-

Qaysi hollarda kompensatsiya to'lash rad etiladi?

Quyidagi holatlar kompensatsiya to'lashni rad etish yoki allaqachon to'langan summani qaytarishni talab qilish uchun asos bo'ladi:

- kompensatsiya olish uchun qalbaki hujjatlar taqdim etilgani aniqlansa;
 - sudning qonuniy kuchga kirgan qarori bilan omonatga kiritilgan mablag'lar jinoyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish yoki ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirish bilan bog'liq faoliyatdan olingani tasdiqlansa.
-

Qo'shimcha kompensatsiya nima?

Qo'shimcha kompensatsiya — kafolat hodisasi yuz berganda omonatchiga quyidagi hollarda qo'shimcha ravishda to'lanadigan mablag'dir:

- meros huquqi asosida olingan kafolat obyektlari bo'yicha;
- bank qo'shilish shaklida qayta tashkil etilgan kundan boshlab olti oy ichida olingan omonatlar bo'yicha.

Qo'shimcha kompensatsiya olish huquqiga ega omonatchilar olti oy davomida kafolatlangan omonat miqdoridan ortiq bo'lgan qismni hamda hisoblangan, ammo to'lanmagan foizlarni muddatidan oldin yechib olishlari mumkin. Bunda muddatidan oldin yechib olish uchun komissiya undirilmaydi.

Omonatchining talab huquqlari Agentlikka o'tadimi?

Kafolat hodisasi yuz bergan sanadagi holatga ko'ra, omonatchilarning tugatilayotgan bankka bo'lgan talab huquqlari kafolatlangan omonatlar summasi miqdorida Agentlikka o'tadi, kompensatsiya amalda to'langan-to'lanmaganidan qat'i nazar. Agentlikning tugatilayotgan bankka bo'lgan talablari qonunchilikda belgilangan navbatlilik asosida qondiriladi.

Talab huquqlarining Agentlikka o'tishi omonatchilarning kafolatlangan omonat miqdoridan ortiq qism bo'yicha tugatilayotgan bankka nisbatan talab qilish huquqini bekor qilmaydi.

Kafolatlangan omonat miqdoridan ortiq qismi bo'yicha omonatchilar to'g'ridan-to'g'ri tugatilayotgan bankka murojaat qiladilar, Agentlik ushbu summalar uchun javobgar hisoblanmaydi.